

“TASDIQLAYMAN”
Xalq banki Boshqaruvi Raisi
o‘rinbosari v.b

F. Ruziyev
“ 06 ” *iyul* 2025 yil

Ichki nazorat va komplayens departamenti tomonidan 2025-yil davomida Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida, moliyaviy sanksiyalar sohasida hamda korrupsiyaga qarshi kurashish va monopoliyaga qarshi kurashish sohalari bo‘yicha bank xodimlarining bilim va malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish

DASTURI

Ushbu dastur orqali o‘quv mashg‘ulotlari Bosh bank xodimlari, Hududlardagi mintaqaviy markaz xodimlari, Bank xizmatlari markazlari va Yagona kassa markazlari xodimlari hamda va boshqa mijozlar bilan ishlovchi mas‘ul ijrochi xodimlari ishtirokida joylarda seminar-treninglar shaklida o‘tkaziladi.

O‘quv mashg‘ulot mavzulari:

1. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida.

1.1. O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi 660-sonli Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Qonuni;

1.2. Adliya vazirligida 2017-yil 23-mayda 2886-son bilan ro‘yxatga olingan Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat Qoidalari;

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 19-oktabrda 3327-son bilan ro‘yxatga olingan Terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to‘xtatib turish, pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to‘xtatib qo‘yish, ishga solmay to‘xtatib qo‘yilgan mol-mulkidan foydalanishga ruxsat berish va operatsiyalarini tiklash tartibi to‘g‘risida Nizom;

1.4. Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 29-iyundagi 402-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq ma‘lumotlarni taqdim etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom;

1.5. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Xalqaro xamkorlikda ishtirok etmaydigan davlatlar (FATFning oxirgi o‘zgarishlari) ro‘yxati bilan tanishtirish;

1.6. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlarga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda yangiliklar bilan tanishtirish;

1.7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2024-yil 19-iyuldagi 25/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Banklar uchun yuridik shaxslarning pul mablag'larini noqonuniy naqdlashtirish bilan bog'liq operatsilarni aniqlash va boshqa yuridik shaxslarga pul mablag'larini noqonuniy ravishda naqdlashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi shaxslarni aniqlash bo'yicha tavsiyaviy qo'llanma", 2024-yil 19-iyuldagi 25/3-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Banklar, nobank kredit tashkilotlari va to'lov tashkilotlari uchun mijozning benefitsiar mulkdorini aniqlash bo'yicha tavsiyaviy qo'llanma", 2024-yil 19-iyuldagi 25/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish sxemalarini aniqlash uchun kompleks tahlil o'tkazish bo'yicha tavsiyaviy qo'llanma", 2024-yil 23-maydagi 23-23/212-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarining, nobank kredit tashkilotlarining, to'lov tashkilotlarining terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to'xtatib turish, pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yish faoliyatiga doir tavsiyaviy qo'llanma"lari;

1.8. O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida ichki me'yoriy hujjatlar to'plami;

1.9. O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida O'zbekiston Respublikasi Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan taqdim qilingan mijozlarning operatsiyalarini to'xtatib turish haqidagi ko'rsatmalari ijrosini ta'minlash bo'yicha Tartibi;

1.10. O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tomonidan norezidentlarga bank xizmatlarini ko'rsatish Tartibi;

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida.

2.1. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda O'RQ-419-son bilan ro'yxatga olingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni;

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 06-iyulda PQ-5177-son bilan ro'yxatga olingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori;

2.3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-noyabrda O'RQ-860-son bilan ro'yxatga olingan "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni;

2.4. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrda Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi O'RQ-445-sonli Qonuni;

2.5. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyunda O'RQ-931-son bilan ro'yxatga olingan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni;

2.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrda PQ-3953-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Qarori;

2.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyunda PF-6013-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni;

2.8. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 13-martda 3425-son bilan ro‘yxatga olingan “Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi;

2.9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-sonli qaroriga 1-ilova Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidolari;

2.10. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2023-yil 31-oktabrdagi Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash uslubiyatini tasdiqlash haqidagi buyrug‘i;

2.11. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining korrupsiyaga qarshi kurashish” Siyosati;

2.12. “Aksiyadorlik tijorat Xalq bankida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish va bankka aloqador shaxslarni aniqlash” bo‘yicha Nizomi;

2.13. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish to‘g‘risida”gi Nizomi;

2.14. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish” Tartibi;

2.15. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish” bo‘yicha Yo‘riqnoma;

2.16. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida xodimlarni korporativ etika va odob-ahloq qoidalariga rioya etilishl hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil etish to‘g‘risida” Yo‘riqnoma;

2.17. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar hamda qonun buzulishi yuzasidan kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish to‘g‘risida”gi Tartib

2.18. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan fuqarolarni rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi Nizom;

2.19. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash” Uslubiyoti;

2.20. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki xodimlarining odob-axloq Qoidalarlari” hamda “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki xodimlarining Odob-axloq qoidalariga amal qilishini nazorat qilish komissiyasi to‘g‘risida” Nizomi;

2.21. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish” bo‘yicha Reglamenti;

2.22. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida kontragentlarni tekshirish va dastlabki malaka tanlovini o‘tkazish bo‘yicha” Yo‘riqnoma;

2.23. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida xaridlarni tashkil etish va amalga oshirish” Tartibi;

3. Monopoliyaga qarshi komplayens sohasida.

3.1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldagi 850-sonli Raqobat to'g'risidagi qonuni;

3.2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2024-yil 1-mayda 256-son bilan ro'yxatga olingan "Tovar yoki moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining ustun mavqeyini yoki ustun muzokara kuchini aniqlash va e'tirof etish tartibi to'g'risi"dagi Nizomi.

4. Sanksiyaviy-komplayens sohasida.

4.1. Xalq bankida moliyaviy sanksiyadagi shaxslarning ro'yxatini shakllantirish, ularni yangilab borish, ro'yxatga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to'xtatish, to'xtatilgan operatsiyalarni qayta tiklash bo'yicha vaqtinchalik Reglamenti.

Yil davomida sohaga oid qonunchilik hujjatlari qabul qilinganda yoki mavjud qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganda bu haqida xodimlarga qo'shimcha tushuntirishlar berib boriladi.

O'quv mashg'ulotlari tasdiqlangan o'quv grafikga asosan Mintaqaviy markaz va bank xizmatlari markazlarida tegishli rahbar va mas'ul xodimlar ishtirokida o'tkaziladi.

O'quv mashg'ulotni o'tkazishga mas'ul bo'lgan xodimlar:

- Ichki nazorat va komplayens departamenti mas'ul xodimlari;
- Xodimlarni boshqarish departamenti;
- Ichki nazorat va komplayens xizmati Mintaqaviy markaz menejeri va menejerlari.

5. Xodimlar bilimini baholab borish.

Xodimlarni boshqarish departamenti va Ichki nazorat va komplayens departamenti tomonidan hududlarda o'tkazilgan o'quv-seminar va treninglar yakuni bo'yicha bank xodimlarining bilim va ko'nikmalari test orqali baholanib boriladi.

**Ichki nazorat va komplayens
departamenti direktori**



A. Xaitov

